

OZUQABOP O`SIMLIKLARNI YETISHTIRISHDA MA`DAN O`G`ITLARNI AHAMIYATI

Sh.Xalmatova

Farg'onan davlat universiteti q/x.f.n dotsent

Annotation. Respublikamizda aholi extiyoylarini ekologik jihatdan sof oziq-ovqat va chorva mahsulotlariga bo'lgan extiyoylarini qondirishda ekinlardan sifatli yuqori hosil olish qishloq xo'jaligi xodimlarini dolzarb vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida o'g'itlardan turli me`yorlarda berilganda, bir xilda berilganga nisbatan sifatli, yuqori hosil olish mumkinligi ta'kidlangandir.

Qishloq xo'jaligida ekinlardan sifatli va yuqori hosil olishda ma'dan o'g'itlari miqdori bilan birgalikda o'simliklarni o'suv davrida o'g'itlash muddatlari shu o'simlikdan olingen hosilning miqdoriga hamda tuproqning ekologiyasiga ta'siri borligi juda katta ahamiyatga ega.

Bu vazifani bajarishda ozuqabop o'simliklardan makkajo'xori muhim o'rin tutadi. Makkajo'xori yetishtirishda atof-muhit ifloslanishini hisobga olib yuqori sifatli don hosili hamda chorva uchun ozuqa olish maqsadida turli miqdorda o'g'itlar qo'llanib, o'sishi rivojlanishi va hosildorligini hamda atrof-muhitga ta'siri o'rganiladi.

Ilmiy adabiyotlarda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida o'g'itlardan turli me`yorlarda berilganda, bir xilda berilganga nisbatan sifatli, yuqori hosil olish mumkinligi ta'kidlangandir.

Makkajo'xori o'simligi joyning tabiiy iqlim sharoiti bo'yicha o'z muddatida ekilib, o'suv davridagi barcha agrotexnik tadbirlar, kuzatish hamda hisobotlar olib borildi.

Biz ham ilmiy tajribamizda makkajo'xori o'simligini o'sish va rivojlanish davrlarida ma'dan o'g'itlarni turli miqdorlarda qo'llanilishi don hosildorligiga va

tuproq ekologiyasiga ta'sirini o'rganish maqsadida dala tajribalarini Qo'shtepa tumani paxta, g'alla, hamda chorvasi mayjud bo'lgan "Farovon" fermer xo'jaligi sharoitida olib borilgan bo'lib, tajribada respublikamizni hamma viloyatlarida don uchun ekilayotgan makkajo'xorini o'rtapishar "O'zbekiston-60 1SV" duragay ustida olib boriladi.

Tajribada o'g'itlar meyorini ikki variantda

1-variantda xar gektar hisobiga N-100, R-80, K-60 kg dan

2-variantda xar gektar hisobiga N-250, R-200, K-100 kg gektariga qo'llanilib makkajo'xorining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi hamda don tarkibidagi to'planadigan ozuqa moddalarini sifati o'rganiladi.

Makkajo'xori urug'i, ekilgan maydon kuzda haydalib erta bahorda yaxshi tekislanib SPUN-6 markali seyalka bilan ekilib, urug'lar unib chiqqandan so'ng reja asosida oziqlanishi maydonlari har-xil qilinib yagona qilindi.

Tajribada variantlari 4 qaytarmali ikki yarusli qilib joylashtirildi. O'suv davridagi barcha agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida sifatli qilib o'tkazildi. Makkajo'xori o'simliklarini o'sish va rivojlanish davridagi barcha kuzatish va hisob kitob ishlari ilmiy tadqiqot instituti uslubi asosida olib borildi. O'simliklarni o'sish va rivojlanishini boshlang'ich davrilarida ma'lum bo'ldiki, o'g'itlar me'yori har gektar hisobiga N-100, R-80, K-60 kg/ga dan bo'lganda va o'g'itlar me'yori N-250, R-200, K-100 kg /ga dan hamda oziqlanish maydoni har xil bo'lganda o'simliklarni bo'yini balandligi, poyadagi barglar sonidagi o'zgarishlari sezilarli darajada farq qilmadi. Chunki u davrda o'simliklarni ildiz sistemasi yaxshi rivojlanmaganligi asos bo'ldi. Makkajo'xori o'simliklarini o'sishi va rivojlanishi keyingi davrlarida o'g'itlar meyori va oziqlanishi maydoni ta'siri sezila borib doni sut-mum pishgan davrida quyidagicha bo'ladi.

O'simliklarni joylanishi 70x30-1 shaklida bo'lib o'g'itlar me'yori xar gektar hisobiga N-100, R-80, K-60kg/ga dan bo'lganda o'simliklarni o'rtacha bo'yini balandligi 332,5 sm bo'lgan, o'g'itlar meyori N-250, R-200, K-100 kg /ga bo'lganda o'simliklarni bo'yini balandligi 346 sm bo'lgan. Agarda o'simliklarning joylanishi 70x25-1 shaklida bo'lganda o'g'itlar meyori N-100, R-80, K-60kg/ga

bo'lganda o'simliklarni bo'yini balandligi 326sm ga to'g'ri kelgan, o'g'itlash meyori N-250, R-200, K-100 kg gektariga bo'lganda o'simliklarni o'rtacha bo'yini balandligi 338 sm bo'lganligi aniqlandi.

Shundan ko'rinishib turibdiki makkajo'xori o'simliklarini o'sishi va rivojlanishini keyingi davrlarida ildiz sistemasi rivojlanib oziqlanish maydoni va o'g'itlarning me`yorini ta'siri sezildi.

Don hosildorligi kuzatilgandagi hisobiga ko'ra o'g'itlash meyori N-100, P-80, K-60kg bo'lib o'simliklarni joylanishi 70x30-1 bo'lganda 48 s/ga bo'lgan bo'lsa o'simliklarni joylanishi 70x25-1 shaklda bo'lganda 59s/ga bo'lgandir, agar o'g'itlash meyori N-250, P-200, K-100kg gektariga qo'llanilganda va o'simliklarni joylanishi 70x30-1 bo'lsa don hosildorligini 57s/ga bo'ldi, o'simliklarni joylanishi 70x25-1 shaklda bo'lganda esa don hosildorligi 76s/ga ko'tarilganligi aniqlanadi.

Shundan ko'rinishib turibdiki o'simliklar siyrak bo'lganda har bir tupdan don hosildorligi ko'p, lekin ko'chat ko'proq bo'lganda bir tup o'simliklardagi don oz bo'lsa xam ummuviy gektarda ko'chatlar soni ko'p bo'lganligi uchun umumiyl hosildorlik yuqori bo'ldi.

Shu bilan birga biz o'g'itlar me`yorini qo'llanilishi bo'yicha tuproqda zaharli moddalarni miqdori tekshirilganda ularni miqdori ruxsat etilgan me`yorga yetmaganligi uchun, makkajo'xori don tarkibiga hamda atrof muhitga salbiy ta'sir etmaganligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytilganda makkajo'xorini "O'zbekiston-60 1SV" duragayi yetishtirishda har bir gektar maydonga o'g'itlar meyorini N-250, P-200, K-100kg/gektariga qo'llanilganda don hosildorligi yuqori bo'lib, atrof muhitni ifloslanishiga salbiy ta'sir etmay xo'jalik uchun ham iqtisodiy natijasi yaxshi bo'lar ekan. Shuning uchun ham barcha makkajo'xori doni yetishtiradigan xo'jaliklarda makkajo'xorini N-250, -200, K-100kg/gektariga dan tavsiya etamiz.